

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

J.Qodirov	
Shaxsga yo'naltirilgan jismoniy tarbiya ta'limi jarayonida pedagogik monitoringni amalga oshirish omillari.....	99
M.Hamidjonov, N.Shodilbekov	
Futbolchilarning ruhiy va jismoniy jihatdan tayyorlashning asosiy usul va vositalari.....	103
B.Qurbanova	
Talabalarni hamkorlik pedagogikasi asosida ijtimoiy hayotga tayyorlashda moslashuvchanlik imkoniyatlarini oshirishni modellashтирish	107
D.Xakimova	
Innovatsion salohiyat pedagog faoliyatining ajralmas qismi	111
B.Umarov	
Raqamli texnologiyalar asosida pedagoglarning professional kompetentligini rivojlantirishning Ilmiy-nazariy asoslari.....	114
Sh.Ro'zaliyev	
"Geymifikatsiya" va "Didaktik jarayonlar"ning metodik tavsifi	118
F.Yuldashev	
Ko'ngilli yong'in-qutqaruvchilarni o'qitishda interaktiv trenajyorlardan foydalanishning ahamiyati	123
A.Rajabov	
Mirbobo Naqshbandiy qalb zikri va uning turlari to'g'risida.....	129
Z.Xamraqulov	
Jinoyat huquqining o'qitilishida huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlik qilish asoslari.....	133
S.O.Omonova	
O'zbekistonda sportni rivojlantirish bo'yicha davlat siyosati va bunda xotin-qizlar ishtiropi	138
A.T.Tuychiyev	
Raqamli texnologiyalar davrida tanqidiy fikrlashning ahamiyati	142
N.E.G'olibjon	
Oliy ta'lif talabalarining jismoniy sifatlarini aylanma mashqlar asosida rivojlantirish usullari	149
J.B.Hamraqulov	
Talabalarda ekologik axloqiy kompetentlikni shakllantirish imkoniyatlari	154

IQTISODIYOT

M.Adxamov	
Kichik mamlakatlarning milliy innovatsiya tizimlari raqobatchilik masalasi.....	158
A.A.Oripov	
Risklarni boshqarish tizimi asosida xizmat ko'rsatish korxonalari faoliyati samaradorligini baholash	161

FALSAFA

M.Qaxxarova, M.Raximshikova	
Yoshlarning ongu tafakkurini shakllantirish va tarbiyalash mummosi	169
A.Sufiyev	
Tadbirkorlik madaniyatini oshirishning aksiologik va pragmatik omillari	175
B.G'aniyev	
Markaziy Osiyo mutafakkirlarining fuqarolik jamiyatni haqida ilk ijtimoiy-falsafiy qarashlari	181
S.Yuldashev	
Jamiyat transformatsiyalashuvining yangi ijtimoiy-madaniy usullari	186
Sh.Usanov, E.Avazov	
Millatlararo munosabatlar mustahkamlanishida Surxondaryo viloyat turkman milliy-madaniy markazining o'rni	190
M.Choriyeva	
"Shoxnoma"da diniy ta'limotlar.....	195
K.Saydazimov	
Baholash va normalar mantig'ida axloqiy qadriyatlar	199
A.Mo'ydinov	
Ma'rifatli jamiyatni qurish va ma'rifatli inson sensualistik qarashining mohiyati	204

YOSHLARNING ONGU TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISH VA TARBIYALASH MUMMOSI

ПРОБЛЕМА ВОСПИТАНИЯ И ФОРМИРОВАНИЯ СОЗНАНИЯ И МЫШЛЕНИЯ МОЛОДЕЖИ

THE PROBLEM OF UPBRINGING AND FORMATION OF CONSCIOUSNESS AND THINKING OF YOUTH

Matlyuba Qaxxarova¹, Mavluda Raximshikova²

¹**Matlyuba Qaxxarova**

– O'zbekiston xalqaro islam akademiyasi, Xalqaro munosabatlar va ijtimoiy fanlar kafedrasi professori, falsafa fanlari doktori.

²**Mavluda Raximshikova**

– M.Auyezov nomidagi Janubiy-Qozog'iston davlat universitetining "Falsafa" kafedrasi dotsenti, falsafa fanlari nomzodi.

Annotatsiya

Mazkur maqolada Uchinchi renessans poydevorin yaratish kabi ezgu harakatda yoshlarning ongu tafakkurini shakllantirish va tarbiyalash jamiyatdagi barcha munosabatlarning mazmuni va sifatini belgilashi Tadqiqot maqsadi sifatida ochib berilgan. Buning uchun shuningdek, instituttsional tizimining funktsional tarqoqligi va deklarativ xarakteri hozircha kutiling darajada natijaga erishishga to'siq bo'layotgani o'rganilgan. Bu esa tibbiyotda genetik kashfiyotlarning qo'llanilishida insoniylik, axloqiylik mezonlari, atrof-muhitni muhofaza qilish, barqaror ekologik vaziyatni qaror toptirish, tabiiy atrof-muhit musaffoligini saqlash, transmilly hamda tabiiy resurslardan oqilonqa foydalanish, barqaror ekologik xavfsizlikni ta'minlash uchun xizmat qilishi ijtimoiy-falsafiy jihatdan asoslangan.

Аннотация

В данной статье целью исследования является определение смысла и качества всех отношений в обществе, формирование и воспитание молодежи в благородном движении, таком как создание основ Третьего Возрождения. С этой целью также было изучено, что функциональная раздробленность и декларативный характер институциональной системы является препятствием для достижения ожидаемых результатов. Социальным является то, что при применении генетических открытий в медицине критерии гуманности, этики, охраны окружающей среды, определения стабильной экологической ситуации, сохранения чистоты природной среды, рационального использования транснациональных и природных ресурсов, а также устойчивая экологическая безопасность философски обоснована.

Abstract

In this article, the purpose of the research is to define the meaning and quality of all relations in society, to form and educate young people's consciousness in a noble movement, such as creating the foundations of the Third Renaissance. For this, it was also studied that the functional fragmentation and declarative nature of the institutional system is an obstacle to achieving the expected results. It is social that in the application of genetic discoveries in medicine, the criteria of humanity, morality, environmental protection, determination of a stable ecological situation, preservation of the purity of the natural environment, rational use of transnational and natural resources, and sustainable ecological security philosophically based.

Kalit so'zlar: Yoshlar, ma'naviyat, ong, tafakkur, milliy qadriyatlar, ma'naviy-intelektual faoliyat, ta'lim-tarbiya, Uchinchi renessans, axloq, jamiyat.

Ключевые слова: Молодежь, духовность, сознание, мышление, национальные ценности, духовно-интеллектуальная деятельность, образование, Третье Возрождение, нравственность, общество.

Key words: Youth, spirituality, consciousness, thinking, national values, spiritual-intellectual activity, education, Third Renaissance, morality, society.

KIRISH

XXI asrda zamонавиј сотсiumda ma'naviy muhit o'ziga xos yo'naliшlarni namoyon qilmoqda, ijtimoiy hayotning barcha sohalari yangidan yangi g'oyalalar, qadriyatlar, bilimlar, tajribalar bilan boyib, takomillashib bormoqda.

Mustaqil taraqqiyot yo'lida shaxdam qadam tashlab borayotgan davlatlar o'z taraqqiyot modeliga asoslangan holda kuchli huquqiy demokratik davlat, fuqarolik jamiyati barpo etishda ikki muhim asosga, bir tomonidan, bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyotga, ikkinchi tomonidan, esa ajdodlarning bebafo merosi, milliy va umumbashariy qadriyatlarga yo'g'rilgan ma'naviyatga tayanmoqda. Jamiyat a'zolarining mazkur qadriyatlar, tajribalar va bilimlarni o'zlashtirganligi darajasi, qadriyatlarning shakllanish qonuniyatlarini aniqlash, ayni paytda ularning inson tomonidan o'zlashtirilishi jarayonini ilg'ab olish, inson ijtimoiy-ma'naviy qiyofasining o'ta

muhim alomatlaridan biridir. Bunda har bir shaxsning milliy va umuminsoniy qadriyatlardan voqifligi, insoniyat tomonidan asrlar davomida to'plangan bilim va g'oyalarni o'zlashtirganligi, mazkur qadriyatlar va bilimlar asosida faoliyat ko'rsatish malakasi o'z ifodasini topadi.

Haqiqat shundaki, Uchinchi renessans poydevorini yaratish kabi ezgu harakatda ham mazkur ikki ustunga tayanish jamiyatdagi barcha munosabatlarning mazmuni va sifatini belgilaydi. Qayd etilgan ikki asosning mustahkamligi, ularning zamini, mazmuni va shakli, obyekti va predmeti, ularning yaxlit majmuasi esa, o'z-o'zidan o'sha jamiyatdagi ta'lism — tarbiyaning sifatiga, uning nazariy va amaliy tatbiqiga bevosita bog'liqidir. Bu masala, avvalo, jamiyatda mavjud bo'lgan, ajdodlar va avlodlar tomonidan yaratilgan milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o'zlashtirish darajasini, bilim va amaliyotning o'zaro aloqadorligini, ma'naviy-intellektual faoliyatning birligini ta'minlashni taqozo etadi. Tarixiy haqiqat shundaki, ma'naviy intellektual salohiyati yuksak shaxslar yurtni dunyoga tanitgan bo'lsa, shaxsni esa avvalo, uning ma'naviy qiyofasi tanitgan. Vaholanki, ma'naviyat avvalo, ta'lism-tarbiyadan boshlanadi. Shu bois ham ta'lism va tarbiya poydevori qanchalik mustahkam bo'lsa, xalq ham, davlat ham shuncha kuchli bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich ta'kidlaganidek, Uchinchi Renessans ta'lism-tarbiya tizimidan boshlanadi[1.57.]. Yohud bugungi tahlikali va murakkab bir zamonda najot avvalo, murakkab mazmun va tarkibga ega ijtimoiy-madaniy fenomen bo'lmish axloqiy tarbiyada, ta'limga sifatidadir.

Ma'rifatparvar Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot — yo xalokat, yo sadoqat, yo falokat masalasidir!" degan so'zlar fikrimizning yorqin dalilidir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Hozirgi kunga kelib ta'lism va tarbiya fanlararo fenomen bo'lib, uning muammolarini nafaqat pedagog — murabbiylar, ijtimoiy fan soha vakillari, faylasuflar, balki, shifokorlar, psixologlar, ekologlar, dinshunoslar, sotsiologlar, huquqshunoslar, siyosatchilar tadqiq etib, sohaga oid muammolarni hal etishda hamkorlikda faoliyat olib bormoqdalar. Chunki, ta'lism — tarbiya masalasi global muammolarning kelib chiqish determinantlari sifatida fanlararo tadqiqot va hamkorlikdagi izchil amaliy faoliyatni talab qilmoqda. Ayniqsa, global mashhuv jarayonlarining avj olishi, qator umumbashariy muammolarning ildiz otishi, global axloq muammolaring kuchayib borayotganligi, milliy ta'lism-tarbiya tizimiga, milliy turmush tarzining ma'naviy negizlariga bepisandlik, ularni qo'porishga qaratilgan xatarli tahdidlar[2.22.] "yoshlar dunyoqarashiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan axloqqa zid normalar, g'oyaviy nigelizm elementlari, vayronkor g'oyalar targ'iboti hamda psevdoqadriyatlarning ko'payib borayotgani, milliy va umuminsoniy qadriyatlар, milliy an'ana va marosimlarning deformatsiyaga uchrayotgani jamiyat muhitida ma'naviy degradatsiya xavfini yuzaga keltirmoqda. Bu kabi muammolarni oldini olish va bartaraf etish uchun avvalo, "tafakkur erkinligini ta'minlash, yangicha dunyoqarash va fikrash tarzi shakllantirilish"[3.462.], ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning axloqiy tamoyillarini belgilab olish nihoyatda zarurdir.

Jahon ilmiy jamoatchiligining aholi, ayniqsa, yoshlar ta'lism -tarbiyasini izdan chiqarishga qaratilgan mavjud tahdidlardan himoyalanish, tarbiya borasidagi muammolarni hamkorlikda hal qilishini, ta'lism, tarbiya sohalarining mushtarak manfaatlari asosida birlashuvini taqozo qilmoqda. Shu bois ham ta'lism-tarbiya muammosi olimlarning, ziyo ahlining diqqat-e'tiborida bo'lib, global axloqiy muammolarni hal qilish va yechimini topishga doir turli ta'lismot va kontseptsiyalar, yangicha ta'lism-tarbiya modellari ishlab chiqilmoqda. Ammo, bir tomondan, ichki va tashqi ta'sir natijasida vujudga kelgan tarbiyadagi evrilishlarni oldini olishga qaratilgan sa'y-harakatlarning diskretligi va fragmentarligi, ikinchi tomonidan esa, qonuniy-huquqiy asoslarning nochorligi, uchinchi tomonidan boy ma'naviy-axloqiy merosdan oqilona foydalana olmaslik, shuningdek, institutsional tizimining funksional tarqoqligi va deklarativ xarakteri hozircha kutilgan darajada natijaga erishishga to'siq bo'lmoxda.

Hozirgi sharoitga kelib, davrlar mobaynida milliy turmush tarzimizda o'ta mustahkam bo'lgan axloq asoslari o'rnini muayyan axloqqa zid aksil qadriyatlarni egallashi, zamonaviy sotsiumda axloqiy tarbiya sohasiga putur yetkazish kabi muammolarni bartaraf etmasdan turib, ta'lism — tarbiya tizimini yuksaltirib, uni sifat darajasini oshirib bo'lmaydi. Shu boisdan ham mazkur masalaga jamiyatning ma'naviy xavfsizligini va ijtimoiy taraqqiyotini ta'minlash bilan bog'liq strategik ahamiyatga ega bo'lgan vazifa sifatida qarashimiz, ta'lism-tarbiyaga oid ishlarmizni nafaqat shakllan balki, mazmunan to'liq takomillashtirishga qaratmog'imiz kerak bo'ladi.

Ta'lism-tarbiya ishlari insonni ma'naviy kamolotga, jamiyatni esa taraqqiyotga eltvuchi g'oya va bilimlar, madaniyat yutuqlarini o'zlashtirishga, ulardan foydalana olish ko'nikma va malakalariga

FALSAFA

ega bo'lishga qaratilishi va mazkur jarayon yangi davr talablariga mutanosib, zamon tendensiyalariga mos ravishda mazmunan va tarkiban takomillashib, uning sifati va xarakteri jamiyatning fundamental ehtiyoj va manfaatlari bilan uyg'un holda kechishi o'ta muhim masaladir. Bu avvalo, jamiyatdagi barcha ma'naviy-ma'rifiy ishlarni, optimallashtirish va zamonaviylashtirishga yo'naltirishni, yoshlar ongida tahliliy tafakkurni shakllantirish, ular dunyoqarashida dunyoviylik va diniylik muvozanatini ta'minlash, tabiat-jamiyat-inson munosabatlarda gumanistik, aksiologik[4.88.] yondashuvini qaror toptirish ishlarni tizimli tatbiq etishni talab qiladi. Vaholanki, jamiyatda axloq ustuvorligini ta'minlamasdan turib yuqorida qayd etilgan ma'naviy-ma'rifiy sohadagi ishlarni amalga oshirib bo'lmaydi. "Holbuki axloq – jamiyat va individ turmushining yetakchi ma'naviy regulyatori, individlarni ezungulik va adolatga intilgan yagona kishilik jamiyatiga birlashtiruvchi negizdir"[5.19].. Chunki, axloq jamiyatning turli sohalariga insoniyat ta'lim-tarbiyasiga muttasil ta'sir ko'rsatib turuvchi, ulardag'i munosabatlarni muvofiqlashtiruvchi asosiy omildir.

Darhaqiqat, ta'lim-tarbiya masalasi insoniyatning porloq kelajagining garovi, ta'lim-tarbiya vositasida butun insoniyat taraqqiyotga erishadi. Qolaversa, shaxs dunyoqarashi, e'tiqodi, ezungulik, go'zallik, yaxshilik, adolatlilik kabi shaxsiy axloqiy sifatlarni aynan, ta'lim-tarbiya asosida shakllantiriladi. Shunday ekan, dunyo miqyosida amalga oshirilayotgan tub ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy islohotlar ta'lim-tarbiya sohasida ham izchil va uzlusiz o'zgarishlar qilishni taqozo etadi. Bu masalalar mas'uliyat, kompetentlik talab qilishi bilan birga barcha chin insoniy madaniyatlar va gumanizm talablarini, avvalo, axloqiylik, burch va majburiyat, muhabbat va xayrixohlik, hayot oldidagi hurmat, hayotga ehtirom kabilarni o'zida mujassam etadi. Sotsiolog D.Koulmen va siyosatshunos R. Petnam[6.] jamiyatda barcha a'zolar tomonidan qo'llaniladigan, amal qilinadigan ijtimoiy me'yorlar va axloqiy qadriyatlar majmui mavjudligini, bu me'yor va qadriyatlar umumjamiat miqyosida ijtimoiy hamkorlikni yo'lga qo'yish, umumiyoq maqsad yo'lida samarali harakat qilish imkoniyatini, ularning ijobji ta'sir kuchini asoslaganlar.

Bunda axloqiylik, yohud "mas'uliyat" tushunchasining jamiyat manfaatlarini ta'minlashdagi ustuvor vazifalari, uning obyektiv xususiyatlari, universal ehtiyojlar ijtimoiy taraqqiyot darajasiga mos ravishda taqsimlansa, axloqiy madaniyatning turli yo'nalishlarini o'z mazmuniga singdirsagina insoniyat uchun ilmu-fanda oqilonalik bilan foydalanish imkoniyatlari kengayib boradi. Axloq-me'yorlari, amaliy etika va axloqiy bilimning to'g'ridan-to'g'ri amaliy makonga tatbiq qilishga yo'naltirish, ta'lim-tarbiyaning, axloqning zamonaviy muammolarini hal etishga qaratilgan nazariy va amaliy faoliyat axloqiy madaniyatni shakllantirish orqali, insoniyatning avvalo, inson maqomining sofligini, ongliligini, undagi insoniylik jihatlarining ustuvorligini saqlash, borliq muvozanatini, tabiat sofligini ta'minlashga qaratilgan qadriyatlar tizimi amaliyotini ta'minlash, bu borada ilm-fan taraqqiyotining eng yangi yutuqlaridan vujudga kelgan ma'naviy muammolarni hal qilish o'ta muhim masaladir.

Hozirgi davrda yosh avlod ma'naviy olamining daxlsizligini asrash uchun ta'lim-tarbiya jarayonida nimalarga asoslanish va nimaga e'tibor qilish kerak, degan savol avvalo, ijtimoiy fan vakillari, qolaversa faylasuflarning diqqat markazida. Ayni shu ma'noda, bugungi kunda yoshlarning fikr tarbiyasiga, xulq – odobiga jiddiy e'tiborni qaratish, ular ma'naviy olamining daxlsizligini ta'minlashda, halollik, adolatparvarlik, xaqiqatparlik asosida keng ilmiy dunyoqarash va bag'rikenglik tarbiyasini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Chunki qayerda bilim tafakkur va axloqiylik hukmon bo'lsa, dunyoqarash mazmunida ilm va axloq uyg'unlashsa, insonlar e'tiqodi, aholi, ayniqsa yoshlar ideallari va qadriyatlar nafaqat zohiran balki botini bilan tom ma'noda ezungulikning kuchi va qudratiga ishonch asosida shakllansa, o'sha yerda inson ma'naviyati yengilmas kuchga aylanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti "Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq. Shu munosabat bilan odamlar, birinchi navbatda, yoshlarning ong-u tafakkurini ma'rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash eng muhim vazifadir"[7.512.] deb qayd etar ekanlar yoshlar axloqi ularning ma'naviy kamoloti masalasi nafaqat bugungi kun, balki, ertangi porloq kelajak garovi ekanligiga urg'u beradi. Yoshlar tarbiyasi bilan bog'liq mahalliy va global muammolar yechimidan biri esa, nazariy bilimlar hamda tajribalarni mutafakkirlarining ilmiy ta'limotlari va milliy falsafiy merosi asosida shakllantirish orqali ta'lim jarayonida samaradorlikka erishish imkonini beradi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Bugungi kunda ta'lim-tarbiya jarayonida ajdodlarimiz yaratgan bebaho ma'naviy-axloqiy merosdan, tarbiyaviy qadriyatlardan oqilonalik foydalanish muhim ahamiyatga ega bo'lib, ularning

ijtimoiy-falsafiy qarashlari, g'oyalari, ularning didaktik asarlari yosh avlodni har tomonlama yetuk shaxs sifatida shakllantirish, ularga to'g'ri ta'lim-tarbiya berishga xizmat qiladi. Chunki, ularning ma'nnaviy merosida inson odobi, axloqi, iymon-e'tiqodi, vijdoni, oila, farzand tarbiyasi masalalari nafaqat nazariy jihatdan asoslab berilgan, balki, inson axloqiy kamoloti, jamiyat rivoji, ta'lim-tarbiya borasidagi o'ziga xos milliy axloqiy modellarni amaliyotga tatabiq etish mexanizmlari, ularning samarali ishslash usul va vositalari[8.31.] ham taklif etilgan. Eng asosiysi muayyan milliy-axloqiy modellar tarkibidagi komponentlar sharqona axloq kodeksi tarkibi, uning axloqiy strukturasi hozirgi yangilanayotgan jamiyatlar uchun ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Xususan, ma'nnaviy meros tarkibidagi ta'lim-tarbiya muammosining o'ziga xos turlarini ko'rib chiqilsa, hozirgi kundagi valeologiya — sog'lom turmush tarzi; gigiyena, meditsina fanlari negizida badan tarbiyasi; falsafa, tarbiya, sog'lom dunyoqarash negizida fikr tarbiyasi; etika, estetika, ilm-u ravish, ilm-u axloq, odobnoma, san'at, adabiyot negizida axloq, nafosat tarbiyasi; deontologiya negizida kasb axloqi; iqtisodiyot, texnologiya negizida mulk, mehnat, tejamkorlik tarbiyasi; ekologiya negizida tabiatga muhabbat, atrof-muhitga insoniy munosabat tarbiyasi; bioetika negizida bo'lsa, axloqiy me'yorlarga, hayotga bo'lgan hurmat tamoyiliga rioya qilgan holda ishslashni, jumladan, tibbiyotda genetik kashfiyotlarning qo'llanilishida insoniylik, axloqiylik mezonlari, atrof-muhitni muhofaza qilish, barqaror ekologik vaziyatni qaror toptirish, tabiiy atrof-muhit musaffoligini saqlash, transmilliy hamda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, barqaror ekologik xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan[9.] tarbiya tizimiga alohida e'tibor qaratmoqda.

O'z davrida tarbiya kechiktirib bo'lmaydigan hayot mamot masalasi ekanligini (Masalan Abu Ali Ibn Sino o'z asarlarida tarbiyani ona qornidayoq berish kerak), ta'lim-tarbiya ishida hamkorlik o'ta muhim masala ekanligini, ayniqsa tarbiya umum ishi hisoblanib, mazkur jarayonda oila a'zolari, ota-onalar, buvi-bobolar, mahalla ahli, mahallaning jonkuyar fidoyilar, ta'lim tarbiya tizimining barcha mas'ullari tarbiyachilar, o'qituvchi-murabbiylar, keng jamoatchilik davlat va nodavlat tashkilotlari, jamiyat a'zolari hamda hukumat vakillari birdek mas'ul ekanliklarini ta'kidlaganlar. Qayd etish kerakki, tarbiya xususiy ish emas, balki milliy, ijtimoiy ishdir. Shuning uchun ham farzandga, kelajak avlodga yaxshi tarbiya berish, uning xulqiga ijobiy fazilatlarni singdirish uchun tarbiyaga mas'ul shaxslarni, avvalo, ota-onalarning o'zini qolaversa, ustozlarni tarbiyalash kerak bo'ladi. Komil insonni voyaga yetkazish tajribali shaxslarning vazifasi ekanligini unutmagan holda, aqli yetuk, ruhi tetik, jismi-joni baquvvat, axloqan boy bo'lgan yoshlar tarbiyasiga barcha birdek, mas'ul ekanligini jamiyatning har bir a'zosining ongiga singdirish avvalo, uchinchi renessans ustunlarini har tomonlama moddiy, ma'nnaviy, eng asosiysi sifatli ma'rifiy qurollantirish kerak bo'ladi.

Shu boisdan ham biz mazkur maqolamizda birinchidan, bir qator qomusiy olimlarimiz ma'nnaviy merosi va ularda yoshlar ma'nnaviy-fikriy tarbiyasiga muhim ta'sir ko'rsatuvchi qarashlar va g'oyalarni dunyo tamadduniga ta'sirini e'tirof etgan holda, ikkinchi tomondan, Sharq mutafakkirlari va ularning ilmiy-falsafiy merosini asrlar davomida dunyo ilm ahli, insoniyat uchun bebaho meros sifatida o'rganish manbai ekanligini qayd etgan holda, uchinchi tomondan, esa, bizning kichik bir qarashlarimizga ularning hatto bittasining g'oyalalarini singdirish imkoniyatining yo'qligini hisobga olgan holda Sizlarning e'tiboringizni bиргина Abu Nasr Farobiyning ta'lim-tarbiyaga, axloqiylikka oid fikrlariga, ulardan kichik bir lavhasiga qaratishni maqsadga muvofiq deb topdik.

Sir emaski, jahon falsafiy tafakkurida Abu Nasr Forobi qarashlari inson va olam mavjudligining fundamental muammolarini anglashdagi eng muhim tarixiy-falsafiy bosqichlaridan biri, uning bebaho merosi qomusiy xarakterga ega. Abu Nasr Forobi asarlarida shaxs kamoloti, jamiyat va shaxs masalalari alohida o'rın egallaydi. Abu Nasr Forobi o'z davrida nafaqat fan va tafakkur tarixiga, umuminsoniy ma'nnaviy va madaniy merosga ulkan hissa qo'shgan. Abu Nasr Forobi o'zining "Fozil odamlar shahri" kitobida: "Agar insonda go'zal xususiyatlar yoki fazilatlar uyg'unlashsa, shundan so'ng u o'zidagidek go'zal fazilat hamda irodani xalqlar va shahar ahllarida hosil qilish yo'lini o'rganishi kerak. Lekin xalqlar va shahar ahllarida hosil qilish uchun insondan zo'r kuch va qudrat talab qilinadi. Bu esa ikki yo'l bilan hosil bo'ladi, ya'ni bu ta'lim va tarbiya yo'li bilan hosil qilinadi. Ta'lim degan so'z xalqlar va shaharliklar o'rtasida nazariy fazilatni uyg'unlashtirish bo'lsa, tarbiya esa shu xalqlar o'rtasidagi tug'ma fazilat va amaliy kasb hunar fazilatlarini uyg'unlashtirish deganidir"[10.] deb ta'kidlar ekan, ta'lim va tarbiyaning inson, jamaa, jamiyatdagi o'rni va uning o'ziga xos sifatlari ham bu fazilatning tahlili va ularning uyg'unlashtirish masalasiga e'tibor qaratadi. Darhaqiqat uning fozil odamlar shahri, tom ma'nodagi fuqarolik jamiyat, yoxud istiqbolda o'z mevasini berishi kerak bo'lgan, insoniyat orzu qilgan, kelajakda ma'lum ma'noda

FALSAFA

reallikka aylanishi mumkin bo'lgan ideal jamiyatdir. Uning falsafiy ta'lomitida ratsionalizm, ma'naviy-axloqiy masalalar yoshlarning ilm egallashi, bilish jarayonlari va aql-idrok, bilish qobiliyati, shaxs psixologiyasiga oid yondashuvlar shunchalar ko'pki, ularni uqib, anglab olish juda katta bilimdonlikni talab qiladi. U o'zining "Ilm va san'atning fazilatlari" risolasida shaxsning hayoti davomida ilm egallashi quyidagi sezgi turlari: teri-badan sezgisi; ta'm bilish sezgisi; hid bilish sezgisi; "hissiyot quvvati" ("quvvai hissiyya") ta'sir qiladi. Bular tashqi sezgilar hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda, "ichki quvvat" ham mavjud bo'lib, ular yodda saqlash, xayol (xotira, tasavvur), histuyg'u, nutq (fikrlash) "quvvat"lari orqali amalga oshishini yoritib beradi. Shuningdek, "Aql ma'nolari haqida"gi risolasida aql-idrok muammosini tadqiq etib, shaxsning shakllanishi va rivojlanishidagi ikki jihatni ochib beradi. Farobiyning qayd etishicha, avvalo, aql va ikkinchi tarafdan, esa, ruhiy holat shaxsning shakllanishi va rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. U o'z asarida aql va ruhiy holatning mujassamlashuvi jarayonidagi tashqi ta'sirni aynan, ta'lif-tarbiya omili ekanligi asoslangan. Agar hozirgi sa'y-harakatlarimiz mamlakatimizda uchinchi renesans poydevorini qurish ekan, unda va avvalo bu masalaga aql bilan yondashuvni, uning huquqiy me'yoriy asoslarini puxta ta'minlash hamda albatta jamiyat muhitida uning barcha a'zolarining ruhiy holatini uni yaratishga moyillikni oshirishga shaylantirishimiz kerak bo'ladi. Yurtboshimiz ta'kidlaganidek, biz keng ko'lamli demokratik o'zgarishlar, jumladan, ta'lif islohotlari orqali O'zbekistonda yangi Uyg'onish davri, ya'ni Uchinchi Renessans poydevorini yaratishni o'zimizga asosiy maqsad qilib belgiladik. Demak uchinchi renessans haqida gapirar ekanmiz, avvalo, jamiyat muhitini bu g'oyani qabul qilishga tayyorlashimiz, uchinchi renessansning mazmun-mohiyatini har birimiz, butun jamiyatimiz chuqur anglab yetishiga erishishimiz, oldingi ikkala Renessansning mustahkam ma'naviy-mafkuraviy negiziga asos bo'lgan ma'naviy merosni bilishimiz, tadqiq va tahlil qilishimiz, ularni yuksak axloqiylik, adolat, ilmga tashnalik va bag'rikenglik muhitida yuz berganligini unutmasligimiz, ikki renesans zamirida islom dining halollik va to'g'rilik, insof va adolat, ilm va amaliy faoliyekni hamma narsadan ustun qo'yilganligi turganligini aqlan tushunib yetishimiz kerak bo'ladi. Abu Nasr Farobi asarlarida ko'tarilgan ikki jihatni uyg'unlashtirish va amaliy faoliyatga ko'chirish hozirda belgilagan oly maqsadimiz uchinchi renesans uchun xizmat qiladi. Vaholanki u, "aqlli deb shunday kishilarga aytildiki, ular fazilatli, o'tkir mulohazali, foydali ishlarga berilgan, zarur narsalarni kashf va ixtiro etishda zo'r iste'dodga ega, yomon ishlardan o'zini chetga olib yuradilar. Bunday kishilarni oqil deydilar. Yomon ishlarni o'ylab topish uchun zehn-idrokka ega bo'lganlarni aqlli deb bo'lmaydi, ularni ayyor, aldoqchi degan nomlar bilan atamoq lozim"[11.224.] deb ta'kidlaydi. Oqil inson o'z mehnati, kasb-hunari, xulqi, muomalasida kamol topishga intiladi. U axloqiylikni ichki go'zallik, nafosatni tashqi go'zallik tarzida talqin etadi. Ezgulik bilan go'zallik ma'lum ma'noda bir birini taqozo etadi. Shuning uchun uning asarlarida "go'zal xatti-harakatlar", "go'zal qilmishlar" degan iboralarni ko'p uchratish mumkin. Uning fikriga ko'ra, har bir narsa-hodisaning go'zalligi uning o'z borlig'ini to'la namoyon etishi va mukammallikka erishivi bilan bog'liq. "Go'zallik-bu turli musiqalar, yaxshi xulq-atvorga to'g'ri keladigan, odamlar erishishga havas qiladigan narsalar"dir[12.42.]. Go'zallikni ikki ko'rinishi mavjud bo'lib, ichki go'zallik bu odob, ta'lif-tarbiya mahsuli va albatta tashqi go'zallik[13.125]. Inson xatti harakatida botin va zohir, bu ikkala go'zallik uyg'unlashganda, garmoniya hosil bo'lganda tom ma'nodagi go'zallik namoyon bo'ladi. Mazmun va shakl mutanosibligiga erishiladi.

XULOSA

Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan ma'naviy-ma'rifiy, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy sohalardagi islohotlarning tub vazifasi va maqsadi barkamol insonni tarbiyalash, shakllantirish bo'lib, har bir shaxs bugungi kunda dunyoda bo'layotgan jarayonlarga ongli munosabatda bo'lishga, ijtimoiy tizimga mas'ullik bilan yondashib, uning taqdiriga befarq qaramaslikka intiladi. Aynan shunday insonlardagina vatanparvarlik hissi yuqori sifatga ega bo'ladi. Yangilanayotgan O'zbekiston taraqqiyotining poydevorini yaratishda avvalo, yoshlarda axloqiy madaniyatni shakllantirish, ta'lif va tarbiyaning ajralmas qismi mustahkam bo'lmog'i shart.

Forobiy eng avvalo, fuqarolarni yuksak axloqiylik ruhida tarbiyalash, o'zaro totuvlik va hamjihatlikka da'vat qilish, oqibatda jamiyatda barqarorlik, odamlar o'tasida tinchlik, omonlik va totuvlikni ta'minlash borasidagi ma'naviy-axloqiy tamoyillarni mohiyatan asoslab bergen. Odamlar, turli xalqlar va mamlakatlar o'tasida o'zaro ishonchszilik, adovat his-tuyg'ularining kuchayishiga sabab bo'lувchi jaholat, diniy mutaassiblik va adovatni, murosasizlik, va zo'ravonlikni ildiziga bolta uruvchi, ularni tag tomiri bilan qo'porib, yemirib, siqib chiqaruvchi asos o'zak, birlamchi omil sifatida

aynan, ma'naviy-axloqiy yuksaklikni ilgari surgan. U o'z qarashlarida insonlar bir-birining yordamisiz yashay olmasligi, hamkorlik va o'zaro yordamgina jamiyat barqarorligi va uning ravnaq topishiga olib borishi faqat "...bir-biriga yordam beruvchi juda ko'p kishilarning birlashuvi orqali inson o'zi intilgan kamolotga erishuvi mumkin"[14.]ligini ta'kidlaydi. Hamkorlik va o'zaro yordamni jamiyatning barqarorligi va uning ravnaq topishining eng asosiy sababi sifatida talqin qilar ekan, jamiyat a'zosining burchi va vazifasi hamda o'zaro hamkorlik va hamjihatlikdagi faoliyat muammosi, xususan, o'zaro hamkorlik va hamjihatlik, yordam his-tuyg'ulari orqali insonlar bir-birlari bilan birlashgan jamoada nafaqat o'zlarining moddiy ehtiyojlarini, balki ma'naviy ehtiyojlarini ham qondirishi, jamoa ma'naviy muhiti va inson kamoloti masalasini ochiqlaydi. Uning bu kabi g'oyalari internatsionallik, millatlararo totuvlik, hamdo'stlik, baynalminallik, tolerantlik, demokratik dunyoviy davlat qurish yo'lidagi mamlakatimiz uchun ayniqsa, dolzarb ahamiyatga ega.

Aslida, farzandlarimiz tarbiyasida eng asosiy bo'g'in hisoblangan ta'lim tizimining jamiyatimiz hayotidagi o'rni va ahamiyatini hech narsa bilan o'lchab bo'lmaydi. Aynan ta'lim-tarbiya sohasiga bo'lgan e'tibor mamlakatning ertangi taraqqiyoti uchun mustahkam zamin yaratadi. Shularni nazarda tutib, yoshlar dunyoqarashi va o'zaro munosabatida zo'ravonlik virusiga, ijtimoiy epidemiyalarga qarshi ma'rifiy emlash, shuningdek, siyosiy barqarorlik va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan jaholatga qarshi ma'rifikatga safarbarlik, qolaversa, uchinchi renessans poydevorining nazariy medologik bazasi bo'lib xizmat qilsa, ikkinchi tomonidan, radikal oqimlar, diversion kuchlar tomonidan yuzaga kelayotgan xavf-xatarlar, ma'naviy-mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashda kuchli g'oyaviy qurol vositasini o'ynashi mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. -Toshkent.: O'zbekiston. 2021. –B 464
2. Choriyev S. Individualizm – asr balosi va jamiyatimiz taraqqiyotiga xavf sifatida// Falsafa va huquq, 2021, №1. -B.22.
3. Erkayev A. Ma'naviyat va taraqqiyot. – Toshkent: Ma'naviyat, 2009. – B. 462.
4. Perevozhikova L.S. Aksiologicheskiye osnovaniya obrozovatelnoy paradigm // Vestnik RUDN, seriya Filosofiya. 2008. № 4. – S. 88-89.
5. Guseynov A.A. Velikiye moralisti. - Moskva: Respublika, 1995. - S.19.
6. Koulmen Dj. Kapital sotsialnyi i chelovecheskiy // Obshestvennye nauki i sovremennost, 2001. №3; Petnam R. Chtob demokratiya srabotala. Grajdanskiye traditsii v sovremennoy Italii. – Moskva: Ad. Margmem, 1996.
7. Qaxxarova, M. (2021). Social-spiritual environment of society and spiritual ideal. Oriental Journal of Social Sciences, 30-36.
8. Qaxxarova, M. (2022). Биоэтика инсон ҳаётий фаолиятининг амалий фалсафаси сифатида. NamDU.
9. Forobiy Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. -T.: A.Qodiriy nom. Xalq meros nashr, 1993. – B 224.
10. Sher A. Axloqshunoslik. T., O'AJBNT – Yangi asr avlod, 2003.
11. Muxamedjanova L.A. (2021). Rol nraevstvennogo vospitaniya v razvitiu lichnosti. Vestnik Yevraziyskogo natsionalnogo universiteta imeni L.N.Gumileva. (2 (135)), 123-133
12. Hayrullayev M.M. Uyg'onish davri va sharq mutafakkiri. – Toshkent: O'zbekiston, 1971. – 310 b. // Forobiy. – Toshkent: "Fan", 1975, 302-303 bet; Al Farabi sotsialno – eticheskiye traktat . Alma – ata. 1976. S.122.
13. Aliyev B.B. Шахс маънавий-ахлоқий тарбияси ҳамиша мухим // Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2022, vol. 2, №23. – P 628-632.
14. Ismailova, Z., Choriev, R., Musurmanova, A., & Aripjanova, M. (2020). Methods of training of teachers of university on advanced training courses. Journal of Critical Reviews. Innovare Academics Sciences Pvt. Ltd. <https://doi.org/10.31838/jcr.07.05.85>
15. Qaxxarova, M., & Raximshikova, M. (2020). MORAL CONTINUITY IS A SOCIAL-PHILOSOPHICAL, HISTORICAL PHENOMENON. The Light of Islam, 2020(3), 103-112.
16. Каххарова, М., & Туйчиева, Х. (2018). Этико-правовые основы системы образования современной России и Узбекистана. In ИСТОРИКО-КУЛЬТУРНЫЕ СВЯЗИ РОССИИ И УЗБЕКИСТАНА И ПЕРСПЕКТИВЫ ГУМАНИТАРНОГО СОТРУДНИЧЕСТВА В СОВРЕМЕННЫЙ ПЕРИОД (pp. 141-144).
17. Қаххорова, М. М., & Йўлдошева, С. М. (2015). Milliy-ahloқий камолотга эришишнинг ўзига хос жиҳатлари. FORMATION A CULTURE OF INDEPENDENT THINKING IN THE EDUCATIONAL PROCESS (2015), 90.
18. Каххарова, М. (2009). Этическая глобализация и её влияние на духовно-нравственное формирование личности. Актуальные проблемы современной науки, (4), 67-71.